



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

3(11)

2024



E-ISSN 2181-379-5



9 772181 379008

ISSN 2181-3787



9 772181 378001



ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
международный научно-методический журнал

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
international scientific-methodical journal

**№3(11) 2024**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Джуманиязова Мухайё Хусиновна, Науменко Евгений Александрович. Проектный подход психологических оснований формирования государственного патриотизма молодежи в Узбекистане .....	98
Raximova Gularo. Shihobiddin Suhravardiyning shogirdlik odobiga doir axloqiy qarashlarining pedagogik asoslari.....	109
Rajabova Lobar Choriyevna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ ijodkorligida STEAM yondashuvdan foydalanish yo'llari .....	114
Rasulova Oygul Odil qizi. Genetika fanidan belgilarning mustaqil holda irsiylanishi mavzusiga doir masalalarning yechilishi va tahlili .....	123
Шарипова Лобар Олимовна. Экологическое воспитание и межкультурная коммуникация: как учитывать экологические традиции и ценности разных народов .....	129
Yulduz Asadovna Po'lotova. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida axborot-resurslar integratsiyasini ta'minlash–metodik muammo sifatida .....	132
Xalillayeva Go'zaloy Mo'minjon qizi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv faolliklarini rivojlantirishda mediasavodxonlikni boshqa fanlar bilan integratsiyasi.....	137
Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna. Hikoyada tarixiylik sinkretizmi .....	141
Shodiyeva Jamila Xolboyevna. Boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni tahlil qilishda savol va topshiriqlardan foydalanish.....	145
Avliyoqulov Abdug'afur. V-VI sinflarda aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuvlar vositasida o'qitishning nazariy asoslari .....	150
Dilnoza Mamatova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish borasidagi uslubiy yondashuvlar tahlili.....	155
Xodjayarova Sevara Abdimurat qizi. Bo'lajak pedagoglarning ijodiy sifatlarini rivojlantirishning mazmuni va metodikasini integrativ yondashuv asosida shakllantirish vositalari .....	160
Yarashov Mardon Jobir o'g'li. Boshlang'ich ta'limida raqamli texnologiyalar orqali didaktik o'yinlarni qo'llash.....	163
Abdumannatov Abdumajit Matayevich. Alisher navoiy ma'naviy merosining yoshlar tarbiyasidagi o'rni .....	167
Shukurova Nigina Luqmonovna. Muammoli ta'lim texnologiyalari orqali talabalarda pedagogik kompetensiyani rivojlantirish.....	171
Avezov Davronbek Soburovich. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash tizimi .....	175
Qoraboyev Husniddin Kamolovich. Matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so'rash usullari.....	180
Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna. Malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining konseptual asoslari ...	184
Alijon Ruzikulovich Khamroev. Technology for designing students' creative abilities .....	187
Ahunbabayeva Shahnoza. Tarbiyachilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali faoliyatlar samaradorligini oshirish texnologiyalari.....	192
Tilavova Minavar Durdiyevna. Pedagogik ta'lim jarayonida talabalar kompozitsion-mantiqiy nutqini rivojlantirish metodikasi .....	196
Hojiyeva Gulchehra Salimovna. Fransuz tilidagi san'atga oid terminlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi tahlili.....	199
Ergasheva Barno Ziyavitdin qizi. Pedagogik kasbi va uning kasbiy kompetensiyalari .....	204
Qo'ldosheva Nigoraxon Avezmurodovna. Boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida o'quvchilarining muloqot madaniyati ko'nikmasini shakllantirishning dolzarbligi.....	207
Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini ingliz tili bilan integratsiyalab o'rgatishning nazariy asoslari.....	212
Mustafoyev O'tkirjon Rustamovich. Maktab fizika darslarida o'quvchilar faolligini oshirishda sun'iy intellektning o'rni.....	216
Protasov Yorqinjon Yoqubjon o'g'li. Scratch dasturlash muhitida turli shakllarni chizish metodikasi .....	221



**Hojiyeva Gulchehra Salimovna**

Buxoro davlat universiteti  
fransuz filologiyasi kafedrası dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## FRANSUZ TILIDAGI SAN'ATGA OID TERMINLARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI TAHLILI

**Annotatsiya.** Mazkur maqola insoniyat ma'naviy hayotida tilning tugan o'rni, tilshunoslikda terminologiya, xususan, san'atga oid terminlar borasida dunyo va o'zbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga fransuz tilidagi san'at terminlari va ularning o'zbekcha tarjimalarini zamonaviy onlayn pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish usullariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** til, tilshunoslik, terminologiya, san'at terminlari, zikr, l'art, la musique, coggle.it, learningapps.org.

### АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ИСКУССТВУ НА ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ, НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** В данной статье описывается роль языка в духовной жизни человечества, исследования, проводимые мировыми и узбекскими учеными по терминологии в языкознании, в частности, терминам, связанным с искусством, а также современным художественным терминам на французском языке и их узбекским переводам для студентов нефилологического образования, посвященное методам обучения, основанным на онлайн-педагогических технологиях.

**Ключевые слова:** язык, лингвистика, терминология, художественные термины, zikr, l'art, la musique, coggle.it, learningapps.org.

### ANALYSIS OF FRENCH-LANGUAGE TERMS ON THE BASIS OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

**Annotation.** This article describes the role of language in the spiritual life of mankind, the researches carried out by world and Uzbek scientists on terminology in linguistics, in particular terms related to art, as well as modern art terms in French and their Uzbek translations to students of non-philological education. dedicated to teaching methods based on online pedagogical technologies.

**Key words:** language, linguistics, terminology, terms of art, zikr, l'art, la musique, coggle.it, learningapps.org.

**Kirish.** Tarixdan ma'lumki, insoniyatning eng buyuk kashfiyoti shubhasiz "til"dir, zero insonni boshqa jonzodlardan ajratib turuvchi ham, uning tili hisoblanadi. Zamonlar osha rivojlanib, taraqqiyotga yuz tutgan tillar qatori davrlar o'tishi bilan o'z tashuvchisi (shu tilda so'zlashuvchi)ga ega bo'lmagani uchun yo'qolib borayotgan tillar – o'lik tillar (jonli iste'moldan chiqqan (tabiiy so'zlashuv tili bo'lmagan), yozma yodgorliklardagina saqlanib qoladi. Masalan, shumer, lotin, etrusk, yunon, qadimiy slavyan, pruss, vestgot, ostgot, italiy, gall, gyozi, kopt (qibtiy), o'rxun, qadimiy uyg'ur, eski o'zbek, qadimiy fors, sanskrit, pali, prakrit, bulg'or va boshqalar) [19.] ni ana shunday tillar qatoriga kiritish mumkin. Shu sababli bir tilning mavjud bo'lishi, davr bilan hamohang va barhayot yashashida nafaqat aynan shu tilga xos bo'lgan so'zlar, balki dunyo yangiliklarini o'zida aks ettirgan xorijiy atamalar ham muhim o'rin tutadi. Zero til taraqqiyotidan ma'lumki, duyoda faqat o'zining sof til birliklariga – terminlariga ega bo'lgan biror til mavjud emas va bunday o'zga tillardan termin o'zlashtirish jarayoni to'xtovsiz davom etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tilda sodir bo'ladigan bu kabi holatlarni bevosita o'rganuvchi soha, tilshunoslikning muhim bo'gini hisoblangan terminologiya bo'lib, bugungi kunda ushbu sohaning eng oldinda turgan vazifalaridan biri – turli tillarni qiyosiy va chog'ishtirma o'rganishdir. Bu borada ko'pgina dunyo olimlaridan, xususan, avstriyalik olim O.V.Nubasov, rus olimlari V.G.Gak, O.S.Axmanova, S.O.Karsevskiy, V.V.Antimirova, V.A.Tatarinov,

A.L.Abramyan, B.N.Golovin, R.Yu. Kobrin, V.P.Danilenko, M.A.Marusenko, A.A.Strelsov, N.M. Golubeva-Monatkina, D.S.Lotte, A.A. Reformatskiy, fransuz olimlaridan F. de Sossyur, Gi Rondo, Mariya Tereza Kastelvi, Mari-Klod Lomning tadqiqotlari ahamiyatga molik [11,10].

Shu bilan birga, o'zbek olimlaridan I.K. Mirzayev [9], M.M. Jo'rayeva [3,8], D.I. Xodjayeva [5], N.B. Kuldashaeva [4], G.S.Hojiyeva [1] ning tadqiqot ishlari mazkur soha rivojiga xizmat qilmoqda.

Xususan, san'atga doir terminologiya yo'nalishida ya'ni, tasviriy san'at, me'morchilik va amaliy bezak san'atlarining tarixiy shakllanishi hamda o'ziga xos jihatlari xususida B.de Fukolt, E.Vilaylek, K.de Veronik, A.Domingyue, S.Signorini, J.Shabrie, R.le Muang, Gay Rondo kabi xorijiy olimlar, shuningdek, N.Abdullayev, K.G'ulomov, G.S.Toshniyozova, I.X.Pardayeva, O.M.Pulatova, Binafsha Nodir singari olimlarning ishlarida ushbu terminotizim umumiy planda tadqiq qilingan. [2].

Keyingi yillarda mamlakatimizda musiqa va san'at sohasiga, bu boradagi mamlakatlararo madaniy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasi o'laroq, sa'atga oid terminlarni xorijiy tillarda, xususan, fransuz tilida o'rganish alohida ahamiyat kasb etayotir, binobarin, mazkur sohadagi termin va atamalarning katta qismini aynan fransuz tilidan o'zlashgan terminlar tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot davomida nofilologik ta'lim yo'nalishida fransuz tilidagi san'at terminlari va ularning o'zbek tilidagi tarjimalarini zamonaviy online pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish usullari tahlil etildi.


Ma'lumki, "san'at" – arabcha so'zdan olingan bo'lib, *ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar* ma'nolarini anglatib, fanda "san'at" terminiga turlicha ta'riflar mavjud. Jumladan, ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi (masalan, tasviriy san'at, me'morlik san'ati, san'at va adabiyot), turli amaliy-tadbiqiy sohalarning o'ziga xos ish uslubi, sistemasi (masalan, harbiy san'at), ko'chma ma'noda, muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik, iste'dod (masalan, so'z san'ati, notiqlik san'ati) [6]; "aptitude à faire quelque chose (l'art d'aimer); application des facultés et des sciences de l'homme à la réalisation d'une conception (les règles de l'art); toute oeuvre humaine où se manifeste du génie, du talent; expression d'un idéal artistique" [10, 90] ya'ni "biror ishni qila olish qobiliyati (sevish san'ati); insonning dunyoni idrok qilish yo'lida bilim va qobiliyatini qo'llay olishi (san'at qoidalari); insoniyatning butun iste'dod va qobiliyatini namoyon qiladigan u tomonidan yaratilgan nodir durdonalar; san'atkorona barkamollik iborasi" demakdir (Tarjima G.Hojiyeva). Shuningdek, san'at – bu histuyg'ularga, sezgi va intellektga ataylab murojaat qiladigan faoliyat, ushbu faoliyatning mahsuli yoki u haqida g'oyadir [12]. Shu sababli, "san'at" kishini ilhomlantirib, ijodkorlik, bunyodkorlik, yaratuvchanlikka chorlaydi [13].

Bilamizki, san'atning ikki; amaliy va badiiy turi mavjud. Zardo'zlik, kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, libos yaratish singarilar amaliy san'at turlari, haykaltaroshlik, rassomlik, badiiy adabiyot, kino, teatr, musiqa kabilar badiiy san'at turlariga mansub bo'lib, shuningdek, tasviriy va ifodali san'at turlari farqlanadi. Ayrim bir san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. [2,26].

**Natijalar va muhokamalar.** Quyida "san'at" va uning turlariga oid terminlar *Coggle.it* onlayn diagrammasi asosidagi tahlilida klassifikatsiya tarzida yoritib berildi.


Ta'kidlash joizki, **Coogle.it** - 2013 yildan buyon xuddi shu nomdagi tuzilma tomonidan ishlab chiqilgan onlayn platforma bo'lib, u foydalanuvchilarga aqliy tasvirlarni yaratish va almashish hamda hamkorlikda ishlash singari amaliy imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin bo'lgan platformadir. Coggle o'z foydalanuvchilariga aqliy xaritalarni yaratish bo'yicha bir qator imkoniyatlarni jumladan, unda yaratiladigan xarita amaliy va intuitiv vosita sifatida o'rganuvchining o'z g'oyalarini asosiy g'oya atrofida tartibga solishga imkon beradi, ular vaqt o'tishi bilan istalgancha o'zgartirilishi yoki rivojlanishi mumkin. Mazkur diaramma onlayn bo'lganligi uchun yaratilgan xaritani avtomatik ravishda saqlash, xaritani to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilish hamda uni foydalanuvchilar bilan real vaqtda baham ko'rish, shuningdek, turli formatlarda, ham tasvir formatida, ham matn formatida eksport qilish imkonini beradi [15]. Ushbu zamonaviy diagramma usuli o'rganuvchida yozish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-diagramma



(<https://coggle.it/diagram/X8sniCM6Pb1WLhzg/t/l'art> G.S. Hojiyeva)

2-diagramma



(<https://coggle.it/diagram/X8sniCM6Pb1WLhzg/t/san'at> G.S.Hojiyeva)

1 va 2-diagrammalarda san'atning "hunarmandchilik", "musiqa", "teatr", "kino", "rassomchilik" kabi turlari va o'z navbatida ushbu terminlar guruhiga mansub atamalar



diagramma shaklida ko'rsatib o'tildi. Tahlillar davomida ko'pgina terminlarning fransuz va o'zbek tilida o'z muqobillariga ega ekanligini, ba'zi terminlar tarjimasida so'z birikmalariga duch kelingani, shuningdek, o'zbek tilidagi "zikr" (arabcha "eslash, yodlash; xotira") so'zidan olingan bo'lib, diniy tasavvufda musulmonlarning xudoni yodga olish bilan bog'liq marosimi va shu marosimda aytiladigan musiqiy-she'riy turkum)[3] terminining fransuz tilida muqobili bo'lmagani sabab, ushbu atama "rel. invocation rituelle pratiquée par les mystiques musulmans"[7] ya'ni, "musulmon mutasavvufi tomonidan diniy marosimlarda aytiladigan olloha murojaatnoma" (Tarjima G.S.Hojiyeva) tarzida o'girilishi diqqatimizni tortdi. Mazkur o'rinda "zikr" termini o'z milliy til xususiyatini saqlagan holda, uni izohlab kelgan so'z birikmalari vositasida tarjimaga tortilgan.


1-rasm



2-rasm

(<https://learningapps.org/view15790142>)

G.S.Hojiyeva)



**Learningapps.org** - bu Shveysariya onlayn sayti bo'lib, u onlayn "ilovalar" deb nomlangan mashqlardan foydalanish yoki yaratish imkoniyatini taklif qiladi. U o'zining o'quv ilovalari: krossvordlar, xotira mashqlari, juftliklarda ishlaydigan boshqotirmalar singari interaktiv mashqlari orqali xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan onlayn platformadir [18].

1 va 2-rasmlarda fransuz tilidagi san'atning ko'plab turlariga oid terminlar va ularni aks ettiradigan suratlarning Learningapps texnologiyasi asosidagi aralash ishlanmasi til o'rganuvchidan topqirlikni talab etib, uning o'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi: barcha javoblarni to'g'ri topgan bilimdon ko'rgazmali vositalar asosida san'atga oid ko'plab terminlarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish mumkin:

✓ San'at insonlar ma'naviy kamoloting banazir mahsuli sifatida xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu boisdan, san'at terminlari tilshunos va san'atshunoslarning e'tiborini doimo

tortib kelgan, shuningdek, san'at terminlarining lug'atshunoslik, terminshunoslik va san'atshunoslik tarixida ba'zi yechilmagan ilmiy muammolarni hal qilishda o'rni beqiyos.

✓ San'at-ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli sifatida uning mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsuli bo'lib, san'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi.

✓ San'at sohasiga oid terminosferaning keng miqyosda tadqiq etilishi natijasida, uning ikki: amaliy va badiiy turi mavjud ekanligini, amaliy san'at turlariga zardo'zlik, kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, libos yaratish singari, badiiy san'at turlariga esa haykaltaroshlik, rassomlik, badiiy adabiyot, kino, teatr, musiqa kabilar mansubligini ko'rish mumkin. Shuningdek, tasviriy va ifodali san'at turlari ham farqlanadi. Ayrim bir san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi.

✓ Tadqiqot davomida, fransuz va o'zbek tillaridagi qator san'atga oid terminlar va ularning tarjimalari Coggle.it va Learningapps.org onlayn pedagogik texnologiyalari asosida tahlil etilib, mazkur platformalar asosidagi ishlanmalar barcha o'rganuvchilar, xususan, nofilologik ta'lim yo'nalishi (san'at sohasidagi) talabalarining kasbiy kompetentligi va xorijiy tilni bilish salohiyatini oshirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlash o'rinli.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyeva G.S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida). Filol. fan. fals. dok. dis. avtoref. – Buxoro, 2023. – B.54.
2. Hojiyeva G.S. San'atga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida). Monografiya. – Buxoro, «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona, 2023. -140 b.
3. Jo'rayeva M.M., Hojiyeva G.S. O'zbekcha-fransuzcha fransuzcha-o'zbekcha lug'at (dictionnaire ouzbek-français français-ouzbek). Musiqa va san'at sohasiga oid ikki tilli lug'at. – Buxoro, 2019. – B. 184.
4. Kuldashova N.B. Fransuz va o'zbek tillarida sport terminologiyasining milliy-madaniy xususiyatlari. Filol. fan. falsafa dok. diss. avtoref. – Buxoro, 2020. – B.14-52.
5. Xodjayeva D.I. Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o'zbek tillari izohli lug'atlari misolida) PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B. 149-159.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", – Toshkent, 2008. – B.149, 442.
7. Гак В.Г., Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь – Nouveau dictionnaire français-russe. Дрофа, Русский язык медиа. – Москва, 2010. – С. 571.
8. Жураева М.М. Модальность вариантности и инвариантности во французском языке. Вестник. Выпуск 63, №5, ЧелГУ, 2012. – С.45–47.
9. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: дисс. док. филол. наук. – Ташкент, 2002. – С.472.
10. DICO PRATIQUE. ÉDITIONS QUEBEC/AMÉRIQUE.-LIBRAIRIE LAROUSSE. – Paris, CEDEX 06. 1989. – P. 90.
11. Hojiev G.S. LINGUVOOCULARY PROPERTIES OF ART TERMS (On the example of French and Uzbek languages). International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPST) Volume: 25 No. 1 2021, – P. 09-15.
12. <https://fr.wikipedia.org/wiki/Art>
13. <https://qomus.info/encyclopedia>
14. <https://coggle.it/diagram/X8sniCM6Pb1WLhgz/t/l'art>
15. <https://www.leblogdudirigeant.com/coggle-outil-ligne-carte-mentales>
16. <https://coggle.it/diagram/X8sniCM6Pb1WLhgz/t/san'at>
17. <https://learningapps.org/view15790142>
18. <https://www.google.com/search>
19. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlik\\_til](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBlik_til)